



ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 1-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Вухоро - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

**Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal**

№ 1-Son 2026-yil

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Olimov Shirinboy Sharofovich — pedagogika fanlari doktori, professor
(Buxoro davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasini mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo‘yicha direktor
o‘rinbosari)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo‘yicha
birinchi prorektor).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini professori).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasini dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Valeriy Vladimirovich Kuleshov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Elena Vasilyevna Andrienko — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Tatyana Aleksandrovna Romm — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

Lochin Rustamovich Zaripov — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Akmal Mardonovich Nazarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

Shavkat Shuhrat o‘g‘li Rustamov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the “Psychology” Department).

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

Dilafuz Tuymuratovna Ismatova — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андрienко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зарипов Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ganjiyev Feruz Furqatovich

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

GLOBALLASHUV DAVRIDA AGRESSIV O‘SMIRLAR JAMIYATGA MOSLASHISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida agressiv xulq-atvoriga ega o‘smirlarning jamiyatga moslashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar tahlil qilinadi. Globallashuv axborot oqimlarining jadallashuvi, madaniy chegaralarning nisbiy yo‘qolishi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyatning kuchayishi orqali o‘smirlar shaxsiy rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, agressiv xulq-atvor namoyon etuvchi o‘smirlar ushbu jarayonlarga nisbatan yanada sezgir bo‘lib, bu ularning ijtimoiy moslashuv darajasida muammolarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotda aggressiyaning shakllanishiga oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi, virtual makon ta’siri va shaxsiy psixologik xususiyatlar kabi omillar asosiy determinantlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, samarali kommunikatsiya va psixologik profilaktika mexanizmlarining o‘smirlarning jamiyatga moslashuvidagi roli yoritiladi. Maqola natijalari agressiv o‘smirlar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: globallashuv, agressiv o‘smirlar, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy-psixologik determinantlar, xulq-atvor, profilaktika.

Аннотация. В статье рассматриваются социально-психологические детерминанты адаптации агрессивных подростков к обществу в условиях глобализации. Процессы глобализации, сопровождающиеся усилением информационных потоков, влиянием массовой культуры и цифровой среды, оказывают значительное воздействие на формирование личности подростков. Агрессивные подростки особенно уязвимы к данным изменениям, что нередко приводит к трудностям социальной адаптации, конфликтности и девиантному поведению. В работе анализируются ключевые факторы, влияющие на развитие агрессии у подростков, включая семейные отношения, влияние группы сверстников, дефицит социального контроля, особенности виртуального общения и индивидуально-психологические характеристики. Особое внимание уделяется роли социальной поддержки, эмоциональной регуляции и профилактических психолого-педагогических мер в процессе успешной адаптации подростков. Подчеркивается необходимость комплексного подхода к решению проблемы, объединяющего усилия семьи, образовательных учреждений и специалистов в области психологии. Результаты исследования могут быть использованы при разработке программ социальной и психологической помощи агрессивным подросткам в условиях современного глобализованного общества.

Ключевые слова: глобализация, агрессивные подростки, социальная адаптация, социально-психологические детерминанты, поведение, профилактика.

Abstract. This article examines the socio-psychological determinants influencing the social adaptation of aggressive adolescents in the context of globalization. Globalization processes, characterized by rapid information exchange, the expansion of mass culture, and the growing impact of digital environments, significantly affect adolescent personality development. Adolescents displaying aggressive behavior are particularly sensitive to these changes, which often results in difficulties in social integration, interpersonal conflicts, and maladaptive behavior. The study analyzes key determinants of adolescent aggression, including family environment, peer group influence, weakened social control, exposure to virtual communication, and individual psychological characteristics. Special attention is given to the role of social support systems, emotional regulation, and preventive psychological interventions in facilitating successful social adaptation. The article emphasizes the importance of a comprehensive socio-psychological

approach that integrates family, educational institutions, and mental health professionals in addressing adolescent aggression. The findings contribute to a deeper understanding of the mechanisms underlying aggressive behavior and offer practical implications for developing effective prevention and intervention programs in a globalized society.

Key words: *globalization, aggressive adolescents, social adaptation, socio-psychological determinants, behavior, prevention.*

Kirish. Globallashuv jarayonlari XXI asr jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy munosabatlarning chuqur integratsiyalashuvini ta‘minlamogda. Ushbu jarayon inson hayotining barcha jabhalariga, ayniqsa, shaxs shakllanishining muhim bosqichi hisoblangan o‘smirlik davriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmogda. Axborot oqimlarining keskin ortishi, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, madaniyatlararo chegaralarning nisbatan yo‘qolishi o‘smirlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor shakllarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmogda. Aynan shu sharoitda o‘smirlar orasida agressiv xulq-atvorning kuchayishi va ularning jamiyatga moslashishida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelayotgani dolzarb ijtimoiy-psixologik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘smirlik davri biologik, psixologik va ijtimoiy jihatdan eng murakkab rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda shaxsda mustaqillikka intilish, “Men” konsepsiyasining shakllanishi, tengdoshlar guruhi bilan munosabatlarning kuchayishi kuzatiladi. Shu bilan birga, emotsional beqarorlik, impulsivlik, ichki ziddiyatlarning kuchayishi agressiv reaksiyalarning paydo bo‘lishi uchun psixologik zamin yaratadi. Globallashuv sharoitida ushbu holatlar ommaviy madaniyat, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi media mahsulotlar, virtual makondagi salbiy muloqot tajribalari bilan uyg‘unlashib, agressiv xulq-atvorning yanada murakkablashishiga olib kelmoqda.

Agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvi muammosi ko‘p omilli xarakterga ega bo‘lib, uni faqat individual psixologik xususiyatlar bilan izohlash yetarli emas. Ushbu jarayonda ijtimoiy-psixologik determinantlar - oila muhitining xususiyatlari, ota-onalar bilan munosabatlar sifati, maktab va ta‘lim muassasasidagi psixologik iqlim, tengdoshlar guruhi ta‘siri, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur determinantlar o‘smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, agressiv xulq-atvorning kuchayishi yoki, aksincha, konstruktiv yo‘nalishga burilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatga moslashuv - bu shaxsning ijtimoiy me‘yor va qadriyatlarni qabul qilishi, ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarishi hamda atrof-muhit bilan muvozanatli munosabatlar o‘rnatish jarayonidir. Agressiv o‘smirlar uchun ushbu jarayon ko‘pincha murakkab va ziddiyatli kechadi, chunki agressiya ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga, ijtimoiy chetlanishga va shaxsiy rivojlanishning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu bois globallashuv sharoitida agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvini ta‘minlovchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni aniqlash, tahlil qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini ochib berish zamonaviy psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, agressiv xulq-atvorni erta aniqlash va uning ijtimoiy-psixologik sabablarini chuqur o‘rganish orqali o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash, salbiy oqibatlarining oldini olish hamda sog‘lom, barkamol shaxsni shakllantirish imkoniyati kengayadi. Shu nuqtai nazardan, globallashuv davrida agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvining ijtimoiy-psixologik determinantlarini tadqiq etish nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Globallashuv sharoitida o‘smirlar xulq-atvoridagi agressivlik va ularning jamiyatga moslashuvi muammosi psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlarida kompleks yondashuv asosida o‘rganib kelinmogda. Tadqiqotchilar ushbu muammoni shaxs rivojlanishining yoshga xos xususiyatlari, ijtimoiy muhit omillari hamda zamonaviy axborot-madaniy ta‘sirlar uyg‘unligi doirasida tahlil qilganlar. Ayniqsa, agressiv xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik determinantlarini aniqlash masalasi ko‘plab rus va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim o‘rin egallaydi.

Rus psixologiya maktabi vakillari o‘smirlik davridagi agressiyani, avvalo, shaxs rivojlanishidagi inqirozli holatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog‘liq holda izohlaydilar. L.S. Vygotskiy o‘zining madaniy-tarixiy nazariyasida shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta‘sir jarayoni sifatida talqin etib, xulq-atvor shakllari, jumladan agressiv reaksiyalar ham ijtimoiy tajriba va kommunikativ munosabatlar mahsuli ekanini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, o‘smirlik davrida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlar va “ijtimoiy vaziyat”ning keskin o‘zgarishi moslashuv jarayonida salbiy xulq-atvor namoyon bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteyn faoliyat yondashuvi doirasida agressiv xulq-atvorni shaxsning ehtiyojlari, motivlari va faoliyat jarayonidagi qoniqmaslik holatlari bilan izohlaydilar. Ularning qarashlariga ko‘ra, o‘smirning ijtimoiy muhitda o‘zini namoyon qila olmasligi, ijtimoiy rollarning cheklanishi va baholanmasligi agressiyani kompensator mexanizm sifatida yuzaga chiqaradi. Bu holat jamiyatga moslashuv jarayonini murakkablashtirib, o‘smirning ijtimoiy izolyatsiyasiga sabab bo‘lishi mumkin.

Agressiv xulq-atvorni chuqur tahlil qilgan rus olimlaridan biri A.A. Rean bo‘lib, u agressiyani shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasi bilan bevosita bog‘laydi. Rean agressivlikni faqat salbiy sifat sifatida emas, balki ijtimoiy muhit ta‘sirida shakllanuvchi xulq-atvor strategiyasi sifatida ko‘rib chiqadi. Uning tadqiqotlarida oila muhitidagi ziddiyatlar, avtoritar tarbiya uslublari, maktabdagi psixologik noqulaylik agressiv o‘smirlarning dezadaptatsiyasiga olib keluvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.

Shuningdek, E.V. Zmanovskaya va N.E. Shchurkova o‘smirlar agressivligini deviant xulq-atvor tizimining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilib, uning shakllanishida ijtimoiy nazoratning sustligi, ijtimoiy me‘yorlarning buzilishi va kommunikativ muammolar muhim determinantlar ekanini asoslab berganlar. Ularning ishlarida globallashuv sharoitida axborot maydonining kengayishi va virtual muloqotning ustunlashuvi agressiv xulq-atvorning yangi shakllarini yuzaga keltirayotgani alohida ta‘kidlanadi.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida esa agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvi muammosi ko‘proq ijtimoiy o‘rganish, kognitiv va ekologik yondashuvlar doirasida o‘rganilgan. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, agressiv xulq-atvor kuzatish va taqlid mexanizmlari orqali shakllanadi. Bandura ommaviy axborot vositalari, kino va raqamli media mahsulotlarida zo‘ravonlik sahnalarining ko‘pligi o‘smirlar tomonidan agressiyaning ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvor modeli sifatida qabul qilinishiga sabab bo‘lishini ilmiy asoslagan. Bu esa ularning real ijtimoiy muhitga moslashuvida salbiy oqibatlariga olib keladi.

Z. Freyd va keyinchalik uning g‘oyalarini rivojlantirgan neo-psixanalitik olimlar agressiyani inson tabiatiga xos instinktiv kuch sifatida talqin qilgan bo‘lsalar-da, E. Fromm agressiyani ijtimoiy sharoitlar mahsuli sifatida izohlab, “destruktiv agressiya”ni shaxsning begonalashuvi va ijtimoiy qoniqmasligi bilan bog‘laydi. Frommning qarashlariga ko‘ra, globallashuv jarayonida insoniy munosabatlarning mexanizatsiyalashuvi va iste‘molchilik qadriyatlarining ustunligi o‘smirlar orasida begonalashuvni kuchaytirib, agressiv xulq-atvorni rag‘batlantiradi.

Amerikalik psixolog U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvini ko‘p darajali ijtimoiy muhit kontekstida tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘smir xulq-atvori mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlar ta‘sirida shakllanadi. Oila, maktab, tengdoshlar guruhi va ommaviy madaniyat o‘rtasidagi nomuvofiqlik agressiv xulq-atvorning kuchayishiga va moslashuv jarayonining buzilishiga olib keladi.

Shuningdek, R. Baron va D. Richardson agressiyani frustratsiya, ijtimoiy ta‘sir va individual farqlar bilan bog‘liq holda izohlab, agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvida emotsional o‘zini boshqarish va ijtimoiy ko‘nikmalarning yetishmasligi muhim rol o‘ynashini ta‘kidlaydilar. Ularning tadqiqotlari agressiyani nazorat qilish va konstruktiv xulq-atvorni shakllantirish orqali ijtimoiy moslashuvni yaxshilash mumkinligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, rus va xorijiy olimlar tadqiqotlari agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvi murakkab, ko‘p omilli jarayon ekanini ko‘rsatadi. Ushbu jarayon shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda, oila, ta‘lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, ommaviy

axborot vositalari va globallashuv sharoitida shakllanayotgan yangi ijtimoiy-madaniy muhit ta'siri ostida kechadi. Mazkur ilmiy qarashlar agressiv o'smirlarning jamiyatga moslashuvining ijtimoiy-psixologik determinantlarini chuqur tahlil qilish va samarali psixoprofilaktik hamda korreksion dasturlar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. Globallashuv sharoitida o'smirlar orasida agressiv xulq-atvorning shakllanishi va ularning jamiyatga moslashuvi masalasi murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirning agressivligi nafaqat individual psixologik xususiyatlar bilan bog'liq, balki u ijtimoiy muhit omillari bilan ham uzviy bog'liqdir. Masalan, L.S. Vygotskiy va A.N. Leontyevning nazariy qarashlarida o'smirning ijtimoiylashuvi, ya'ni jamiyatga moslashuvi uning faoliyati va ijtimoiy tajribasi orqali amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan, agar o'smir o'zini ijtimoiy tizimda maqbul tarzda namoyon eta olmasa, u o'z qoniqmasligini agressiv xulq-atvor orqali ifodalashi tabiiy holat sifatida tushuntiriladi.

O'smirlar aggressiyasini tushuntirishda rus olimlari e'tibor qaratgan yana bir muhim jihat - oila va maktab muhitining roli. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avtoritar yoki e'tiborsiz oila tarbiyasi, ota-ona bilan yetarlicha iliq va konstruktiv muloqotning yo'qligi o'smirde frustratsiya va bezovtalikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, maktabdagi psixologik iqlim, tengdoshlar bilan munosabatlar va pedagogik qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi ham agressiv reaksiyalarning yuzaga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. A.A. Rean va E.V. Zmanovskayaning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'smirning jamiyatga moslashuvdagi muvaffaqiyati uning ijtimoiy tajribasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, salbiy ijtimoiy sharoitlar aggressiyani kuchaytiradi va dezadaptatsiyaga olib keladi.

Xorijiy olimlar tadqiqotlarida agressiv xulq-atvor ko'proq ijtimoiy o'rganish, kognitiv va ekologik kontekstlar orqali tahlil qilinadi. A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasi doirasida o'smirlar tomonidan zo'ravonlik sahnalarini kuzatish va taqlid qilish agressiyaning shakllanishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi agressiv o'smirlar jamiyatga moslashuvini mikro-, mezo- va makrotizimlar bilan izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, oila, maktab, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari o'smirning xulq-atvoriga bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatadi.

Muhokamada e'tiborga molik jihatlardan biri - globallashuvning o'smir xulq-atvoriga murakkab ta'siridir. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va madaniyatlararo integratsiya o'smirlarning qadriyatlar tizimi, kommunikativ ko'nikmalari va emotsional boshqaruv qobiliyatlariga sezilarli ta'sir qiladi. Shu bilan birga, global media orqali targ'ib qilinadigan zo'ravonlik sahnalari agressiv xulq-atvorning yangi shakllarini yuzaga chiqaradi va jamiyatga moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. E. Frommning fikricha, bunday sharoitda agressiya shaxsning begonalashuvi va ijtimoiy qoniqmasligi bilan kuchayadi, bu esa ijtimoiy dezadaptatsiyani kuchaytiradi.

Shu asosda, o'smirlarning jamiyatga moslashuvi faqat individual psixologik yondashuv orqali emas, balki ko'p darajali ijtimoiy-psixologik determinantlar kontekstida ko'rib chiqilishi lozim. Bu determinantlar oila, tengdoshlar guruhi, maktab muhitidagi psixologik iqlim, media va raqamli texnologiyalar orqali shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konstruktiv ijtimoiy muhit, emotsional qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali agressiv xulq-atvorni kamaytirish va o'smirlarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash mumkin.

Muhokama yakunida shuni ta'kidlash mumkinki, globallashuv davrida agressiv o'smirlarning jamiyatga moslashuvi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni o'rganishda rus va xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari bir-birini to'ldiradi. Ular o'smirlarning xulq-atvorini individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, tengdoshlar ta'siri va global axborot maydoni bilan bog'liq holatlarda tahlil qilib, samarali profilaktik va korreksion strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, o'smirlarning agressiv xulq-atvorini nazorat qilish va ularni jamiyatga moslashuvchan shaxslar sifatida shakllantirish zamonaviy psixologiya va pedagogikaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Xulosa. Globallashuv davrida agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvi murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p omilli jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning agressiv xulq-atvori faqat individual psixologik xususiyatlarga, masalan, emotsional beqarorlik, impul’sivlik yoki ichki ziddiyatlarga bog‘liq bo‘lmay, balki keng ijtimoiy-psixologik determinantlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu determinantlar qatoriga oila va pedagogik muhit, tengdoshlar guruhi ta’siri, maktabdagi psixologik iqlim, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar orqali shakllanayotgan madaniy-ijtimoiy kontekst kiradi.

Rus psixologlar, jumladan L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va A.A. Rean o‘smirlarning agressiv xulq-atvorini ijtimoiy faoliyat, faoliyat natijalaridan qoniqmaslik va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir kontekstida tahlil qilganlar. Shu bilan birga, xorijiy olimlar, xususan A. Bandura va U. Bronfenbrenner, agressiyani ijtimoiy o‘rganish jarayoni, ekologik tizimlar va global axborot maydoni bilan bog‘liq holda izohlashadi. Bu tadqiqotlar o‘smirlarning jamiyatga moslashuvi nafaqat individual salohiyat, balki ularni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit mavjudligi bilan belgilanadi degan xulosaga olib keladi.

Globallashuv sharoitida ijtimoiy media, virtual muloqot va madaniyatlararo integratsiya o‘smirlarning qadriyatlar tizimi va xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Salbiy axborot oqimlari va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent o‘smirlar orasida agressiv reaksiyalarning kuchayishiga sabab bo‘lib, ularning jamiyatga moslashuvini murakkablashtiradi. Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashi, emotsional boshqaruv va konstruktiv xulq-atvorni rivojlantirish, ularni jamiyatga moslashgan va barqaror shaxs sifatida shakllantirish uchun muhim vositalar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, agressiv o‘smirlarning jamiyatga moslashuvi masalasi nafaqat psixologik, balki ijtimoiy, madaniy va pedagogik jihatdan ham dolzarb bo‘lib, uni hal etishda ko‘p darajali, integratsiyalashgan yondashuv zarur. Bu yondashuv oila, maktab, tengdoshlar guruhi va media-muhitni bir butun tizim sifatida ko‘rib chiqish va agressiv xulq-atvorni kamaytiruvchi samarali strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu tarzda, globallashuv davrida o‘smirlarni ijtimoiy moslashuvchan, emotsional va ijtimoiy jihatdan barqaror shaxslar sifatida tarbiyalash nafaqat psixologiya, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Malti, T., & Rubin, K. H. (Eds.) (2016). Handbook of Child and Adolescent Aggression. New York: Guilford Press. - keng qamrovli qo‘llanma bo‘lib, bolalar va o‘smirlar agressiyasini biologik, psixologik va ijtimoiy omillar asosida yoritadi.
2. Marcus, R. F., & et al. (2007). Aggression and Violence in Adolescence. Cambridge: Cambridge University Press. - o‘smirlar orasidagi zo‘ravonlik va agressiya jarayonlarini ijtimoiy-psixologik kontekstda tahlil qiladi.
3. Garbarino, J. (2000). Lost Boys: Why Our Sons Turn Violent and How We Can Save Them. New York: Free Press. - o‘smirlar agressiyasi sabablari va uni kamaytirish yo‘llariga bag‘ishlangan monografiya
4. Fite, J. E., Goodnight, J. A., Bates, J. E., Dodge, K. A., & Pettit, G. S. (2008). Adolescent Aggression and Social Cognition in the Context of Personality: Impulsivity as a Moderator. *Aggressive Behavior*, 34(5), 511–520. - agressiv xulq-atvor va ijtimoiy ma’lumotni qayta ishlash munosabatlarini o‘rganadi.
5. Ettekal, I., & Ladd, G. W. (2019). Development of aggressive-victims from childhood through adolescence. *Development and Psychopathology*, 32(1), 271-291. - agressiv va tajovuzkorlarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qiladi.


MUNDARIJA:

Nazarov Akmal Mardonovich		Talabalarda kreativ va innovatsion ilmiy faoliyatning psixologik jihatlari	6
Rustamov Shuxratovich	Shavkat	Talabalarni innovatsion kompetenligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	10
Ostanov Sharifovich	Shuxrat	Art-terapiya metodlari yordamida talaba-yoshlarning kreativ fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning psixologik asoslari	14
Axmadov Rahmat o‘g‘li	Nazirjon	O‘smirlarda konstruktiv xulq-Atvorni shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari	19
Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li		Sud psixologik ekspertizasida shaxsning emotsional holatini baholash	24
Axtamova G‘ayratovna	Ferangiz	O‘smirlik davridagi destruktiv xulq-atvorni psixoprofilaktika qilish va kreativlikni faollashtirishga yo‘naltirilgan psixologik yondashuvlar	30
Ashrapov Namoz o‘g‘li	Nodirbek	O‘smirlarda kognitiv rivojlanishning ijtimoiy-psixologik determinantlari va ularning shaxsiy rivojlanishdagi o‘rni	35
Hamroyev Jasur		Talabalari o‘rtasida sun‘iy intellekt vositalari yordamida kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish	40
Axmedova Rahmat qizi	Zarina	Loyihaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning fasilitatorlik faoliyatiga tayyorlash mexanizmini takomillashtirish	44
Khakimov Shodikovich	Shukhrat	Methods of studying the military servant and the military team	49
N.Z.Jumayev		Raqamli davrda ijtimoiy media va sun‘iy intellektning yoshlar ruhiy salomatligiga ta’siri	56
Sharopov Suxrob Shodi o‘g‘li		Talabalarni kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari	60
Boboqulova Komil qizi	O‘g‘iloy	Shaxslararo manipulyatsiya va nazorat mexanizmlari: emotsional ekspluatatsiyaning psixologik asoslari	64
Saidova Nu‘monovna	Nodira	Yoshlar kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik psixologiyaning roli	68
Bobojonova Husniddin qizi	Dilnura	Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarda adaptatsiya jarayoni rivojlanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	73
Абдужабборов Тохиржон Курбанович		Особенности течения и лечения atopического дерматита в зависимости от возраста по данным наблюдений в андижанской области	78

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich Narzullayeva Iroda Jaloliddin qizi	Tijorat banklarida investitsiyalarni jalb etishda xorij tajribasi	82
Nurmuxammedova Nilufar Alijon qizi Temirova Mashhuraxon Muhammadaminovna	O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida xotin-qizlar liderlik faoliyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarining mustahkamlanishi	89
Maxmudova Zulfiya Mexmonovna	Qo‘riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	92
Sanoyeva Mohigul Odil qizi	Klassik pedagogik merosni modernizatsiya qilishning zamonaviy talablari va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish mexanizmlari	103
Xolmirzayeva Mushtariybegim U. Abdullayev	Bobi oliy: usmonli davlatining boshqaruv markazi va evolyutsiyasi	107
Dilmurodov Elyorjon Ilg'or o'g'li	Civil society and globalization: the harmony of national values and modern trends	110
Eshpo'latova Xilola Davron qizi	Fransuz tilini o'rganish jarayonida audiovizual materiallar yordamida talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirish	116
Abdusalimova Zukhraxon Bakhtiyor qizi	Teaching methodology of the uzbek language for the foreign students	119
Abdullayeva Dildora Muhiddin qizi	Frazeologik sinonimlarning struktur turlari	122
Panaeva Sarbinaz Uzaqbergenovna	Insonlar orasida fabbing (phubbing) holatining paydo bo‘lishi va uning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini	125
Toshturdiyev Nurbek Nurali o‘g‘li	Jadid ziyolilarining hayot tarzi va ijtimoiy mas’uliyat hissi: ma’rifat va fidoyilik omillari	130
Uzoqova Gulzoda	Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi	134
Xilola Xolikova Gulamovna, Siroj Nematov G‘ulom o‘g‘li,	Maktab muhitining o‘quvchilar emotsional holatiga psixologik ta’siri	137
Sultonmurod Mamasoliyev Olimjon o‘g‘li	Psychological benefits of gamified bilingual learning: a meta-analysis of motivation and well-being	141
Qodriqulova Fotima Ulug‘bek qizi	Azot fiksatsiyasi va innovatsiyalar: yasmiq yetishtirishning yangi bosqichi	146
Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna	Turkiy adabiyotda shaxs kamoloti: Hofiz Xorazmiy didaktik qarashlari misolida pedagogik model	150
Obidova O.	Ta’lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’siri	154
Xasanova Nazokat Shavkatbek qizi	Inson huquqlarini xalqaro himoya qilish mexanizmlari	159
Abdug‘ofurov Muhammadqodir	Milliy me’morchilik uslublarida zamonaviylik va restavratsiya muammolari	163

Olimova Sarvara Sobitxon qizi		Nogironligi bo'lgan shaxslarning kutubxonalar orqali ijtimoiy integratsiyasi va madaniy hayotga qo'shilishi	166
Jamaldinov Azimjanovich	Sarvar	Raqamli ta'lim jarayonlarini o'rgatishning bo'lajak pedagoglar tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati	171
Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi		Sensorinevral eshitish nuqsoniga ega bolalarda rivojlanish dinamikasi: tibbiy va pedagogik qarashlar	176
Mamatqulov Botir		The interpretation of personal tragedy in the short stories of nazar eshonqul	181
Bobokalonov Ostonovich	Rajab	Tibbiy terminlarda lisoniy lakuna hodisasi	188
Murodjonova Dilzoraxon qizi	Tolibjon	“Tolerantlik” tushunchasining mazmun mohiyati	191
Iskandarov Abdug'aniyevich	Sherzod		
Туйбаева Бахтияровна	Саида	Психологические механизмы самозащиты студентов	194
Tursunbayeva Durdonaxon qizi	Adxamjon	Atrof-muhitni muhofaza qilishning zamonaviy konsepsiyalari: muammo va yechimlar	198
Ismoilova Saidali qizi	Zulayho	Umumta'lim maktablarida xulqi og'ishgan o'quvchilarning shaxs xususiyatlarini kompleks diagnostika qilish	203
Masharipova Rahimovna	Saida	Zamonaviy oilalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy- psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish	208
Abdujobborova Rayhona Adhamjonqizi		Xotira turlaridan qanday qilib samarali foydalanish kerak.o'quvchilar uchun praktik tafsiyalar	212
Arslanova Aleksandrovna	Dilnoza	Nutqiy rivojlanish bilan mantiqiy fikrlash o'rtasidagi bog'liqlik: lingvistik kompetensiya.	216
Mirzayev Xasanjon o'g'li	Ismoiljon		
Xasanova Kumushbek qizi	Aziza	Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar	219
Xolboyev Axmadillo o'g'li	Izzatillo	Talabalarning akademik muaffaqiyatiga ta'sir etuvchi psixologik omillarning tahlili: o'zini- o'zi tartipka solish strategiyalari	223
Кабулов Толыбаевич	Саулат	Основные принципы и теория преподавания русскому языку и литературе	226
Saitova Komila G'ulom qizi		Stressga chidamlilikning psixologik determinantlari: ong, iroda va emotsional o'zini boshqarishning o'zaro aloqasi	231
Ro'ziyeva Sitora qizi	Sitora Odil	Nega ingliz tili dunyo tili hisoblanadi?	234
To'ychiyeva Sherquzi qizi	Madinaxon	Mustaqil ta'lim metodlarining o'quv motivatsiyasiga ta'siri	237
Murodjonova Dilzoraxon qizi	Tolibjon	Kimyoning kriminalistikadagi o'rni	240

To‘rayeva Nosirovna	Gulnora		
Qudratova Bahromovna	Nozima	Tog‘ay Murod asarlarining til xususiyatlari	244
Pak Aleksandrovna Qurbonova Mamat qizi	Diana Zamira	Yangi O‘zbekistonda ota-onalar universitetining maktabgacha ta’limdagi tarbiyaviy funksiyalarini kengaytirish mexanizmlari: muammolar va yechimlar	248
Abdullayeva Madinaxon Alisher qizi		Inglizcha varvarizmlarning o‘zbek tilidagi genderga xos qo‘llanish xususiyatlari	251
Ibrohimova Vahobjonovna	Halima	Mamlakatimizda yoshlarning internet tarmogidan tog'ri fodalanihini nazorat qilish	254
Soliyev Sobirovich	Ilhomjon	Eshitish nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutq rivojlanishining logopedik asoslari	258
Akmalova Akmal qizi	Bahora	Erta bolalik davrida ijtimoiy-emotsional va psixologik rivojlanish	261
Alimjonova Fazliddin qizi	Sabina	Vatan himoyasi - jasorat ifodasi	265
Ganjiyev Furqatovich	Feruz	Globalashuv davrida agressiv o‘smirlar jamiyatga moslashishining ijtimoiy-psixologik determinantlari	269
Zuxriddinova Dilshodbek qizi	Risola	Tuban suvo‘tlarining ekologiyadagi ahamiyati	274
Ibodulloyev Sheraliyevich	Nurali	Integrativ yondashuv asosida otmlarida ta’lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish omillari	278
Umirbekova Kenesbaevna	Nasiba	Axborot globalashuv jarayonida o‘smirlarning O‘z-o‘zini anglash transformatsiyasi jarayonlarini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar tahlili	282
Yarashov Lazizovich	Azizbek	Correlation analysis of factors of social psychological competence of forensic psychologist expert	286
Ondayev Shuhrat Hasanovich		Profilaktika inspektorlarida kasbiy deformatsiyaning oldini olishning psixologik xususiyatlari	294
Narmuradova Uktamovna	Rayhon	Jinoyat sodir etishda affekt holatining psixologik va huquqiy bahosi	298
Jumayeva Laylo Elmurodovna		Pedagogik jarayonda nutq texnikasining ta’lim samaradorligiga ta’siri	301



**“ACADEMIC SPECTRIUM”
ILMIY METODIK JURNALI UCHUN MAQOLALARNI
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

“ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o’zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo’lgan asosiy talablar:

✚ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;

✚ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro’yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 3-8 betgacha;

✚ maqola nomi, annotatsiya (50-60 ta so’z) va tayanch so’zlar (8-10 ta) ingliz, o’zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida mavzu, muallifning F.I.O. (to’liq yozilishi

kerak), mualliflar bir nechta bo’lsa, ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko’rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo’llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro’yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 12 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o’ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo’lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to’liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro’yxatda ko’rsatiladi. Matn ichidagi ko’chirmadan so’ng iqtibos olingan asarning ro’yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o’rinda kitob, to’plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to’liq nomi, nashr ko’rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko’rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko’rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo’lsa, barcha savol va e’tirozlar bo’yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo’lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezlari va ma’ruzalari chop etilmaydi. E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko’chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o’zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko’rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o’zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko’rib chiqilmaydi.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://fanistiqbollari.uz>
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

*“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 1-Son.*